

Jahongir Saparboyev

QDU Jurnalistika ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi

e-mail: soporboyevjahongir503@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy matbuotchilimiz rivoji va uning taraqqiy topishi uchun ajdodlarimiz, ayniqsa, jadid bobolarimizning o'рни haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, jadidlar yashagan davrdagi zulmli siyosat va hozirgi zamon jurnalistikasi faoliyatining farqli tomonlari o'rganilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarini kimlar tashkil eta oladi va ularning huquqlari qaysi normativ hujjatlar bilan kafolatlanganligi haqida ham so'z yuritiladi.

kalit so'zlar: OAV, Qonun hujjatlari, "Reklama to'g'risida"gi qonun, Senzura, Jadidlar to'plami, "OAVlari to'g'risida"gi qonun, axborotlashtirish

KIRISH

Jurnalistikasiz kelajak yo'q. Ayniqsa, hozirgi globallashuv zamonida. Jamiyatda axborotlarni aniq, sof, haqqoniy yetkazishda jurnalistika sohasi alohida o'rin tutadi. Bugungi kun qahramonlari faoliyati ham davlat tomonidan kafolatlangan.

ASOSIY QISM

Jurnalistika qadim zamonlardan paydo bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi. Aynan uning paydo bo'lishi so'zlashuvning, ma'lumotlarni yetkazishning paydo bo'lishi bilan boshlangan deb qaraladi. Jurnalistika o'z navbatida gazeta, jurnal, boshma nashriyotlar, tele va radio, internet kabi turlarga bo'linib o'rganiladi. Bu sohalarning o'ziga yarasha xizmat turlari bor. Televideniya ovoz, ko'rinish, matn, radioda ovoz, gazeta va jurnallarda matn va rasmlar, internetda bo'lsa hamma-hammasi mujassam bo'ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, jadid bobolarimiz davrida erkin faoliyat yuritishlari uchun sharoit bo'lmagan. Haqiqatni gapirish ancha mushkul bo'lib qolgan. Gapirganlar bo'lsa, ogohlantirishlar olib, qatag'on qurbonlari bo'lishgan. Birgina misol Ismoil Obidiy muharrirligidagi "Taraqqiy" gazetasining qisqa umrini olish mumkin. 1906- yil 14- iyunda gazeta chop etila boshlagan bo'lsa, shu yilning avgust oyida 20- soni bilan batamom tugatilgan.

Turkistondagi ma'rifat taratuvchi birdan-bir gazetaning maqsadi xalqning ma'naviy kamolotini yuksaltirish, aholini ma'rifat tomon chorlash bo'lgan. Ammo, vaqtning o'tishi bilan Munavvar qori Abdurashidxonov ramiy ruxsat olib, "Xurshid" gazetasini nashr qildiradi boshlaydi. "Xurshid" dastavval sakkiz sahifada haftada bir marotaba chiqa boshlaydi. Tez orada hafta uch marotaba chiqadigan bo'ladi. "Xurshid" jadidchilik harakati va jadidlarning go'ya-maqsadlarini ochiq yoritadi. Jadidona milliy ruh va maqsadlar sababli mustabid tuzumning zulmkorlari tomonidan "Xurshid" 1906- yil 16- noyabrda 10- soni chiqqach, tamom tugatiladi. Shundan keyin, Abdulla Avloniy rasmiy ruxsat olib "Shuhrat" gazetasini chiqara boshlaydi. To'qqizinchi sonidan keyin, gazeta olti sahifada bosilib chiqqan. Aslini olganda, bu gazetani zimdan Munavvar qori Abdurashidxonov boshqargan.

Ma'lumot o'rnida aytish kerak, gazetaning obunachilari 252 tani tashkil etgan. Gazeta 1908- yili 2- fevralda yopilgan. Oradan ancha vaqt o'tgach, Abdurahman Sayyoh Sodiqov nomiga rasmiylashtirib "Al-isloh" jurnaliga asos solinadi. Jurnalning bir sonida bank sohasiga talluqli maqola bosiladi va Munavvar qorini Turkistondagi maxfiy bo'limga chaqiradi, Abdurashidxonovdan shunday mazmundagi maqola yozsam jazo olishga roziman degan mazmundagi tilxat yozdirib olishadi va ogohlantirishadi. Jadid bu bilan sira faoliyatini susaytmaydi. 1917- yil Fevral inqilobidan keyin "Turkiston viloyati gazetasi"ni qo'lga olib, unga yangi nom beradi, ya'ni "Najot". "Najot" ham chin ma'noda xalqqa najot bo'la oldi, lekin uning ham umri qisqa bo'ldi noyabr oyida chop etilishdan to'xtatildi. Munavvar qori Abdurashidxonov endi do'sti Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevning nomiga rasmiylashtirib "Sadoi Turkiston" gazetasini chop eta boshlaydi. Ubaydullaxo'ja o'zbekchani sustroq bilganligi uchun, gazetani Munavvar qori boshqaradi. Ammo yana o'sha to'siq, mustabid tuzumi. Podpolkovnik Volkov Munavvar qorining jadidona ma'rifat, xalqning g'amin yeyayotganini ko'rib, ustidan shikoyat bildiradi. Turkiston general gubernatori mahalliy boylar orasidagi nufuzi va xalq orasidagi obro'yidan cho'chib shikoyatni ma'qullaydi. Shunday qilib, jadid bobolarimiz jurnalistik faoliyatida anchagina to'siqlar, ya'ni senzura paydo bo'lgan. Ammo hozirchi? Hozirda OAV xodimlari uchun bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan. Hattoki, ularning faoliyati Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Bosh qomusimizning 33- moddasida shunday keltirilgan:

" Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axboroti tarmog'idan foydalanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi".

Albatta, har shaxs fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Kundan-kunga rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonda xalqning ma'naviy kamoloti mana shunday kafillanadi. Konstitutsiyamizning 81-82 moddalarida ham OAV va xodimlariga tegishli huquqlar ham qayd etilgan. Jumladan, "Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. OAVlarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi " deb keltirilgan. O'z navbatida bu ham jurnalistlarning erkin va haqqoniy faoliyat yuritishlari uchun asos bo'ladi. Mamlakatimizda OAVlari haqida bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Reklama to'g'risida", " Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", " Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa bir qator qonunosti hujjatlari sohadagi hatti-harakatlarni tartibga soladi. Shu o'rinda savol, nima uchun 27- iyun "Matbuot va OAV xodimlari" kuni sifatida nishonlanadi? Sababi, bu kunda ilk milliy nashrimiz "Taraqqiy" chop etila boshlagan. Mazkur sanani bayram sifatida nishonlaydigan bo'lsak, mustamlakachilik zamonidagi o'sha og'ir vaziyatlarda milliy

matbuotimizning poydevorini qo'ygan shaxslardan shijoatni,jasoratni o'rganishimiz kerak,ulardan ruh olishimiz kerak. Mazkur bayram ham shuning uchun kerakdir.

XULOSA

Sohamizdagi bugungi natijalar uchun kimlargadir minnatdorchilik bildirishimiz shart emas. O'zi bizning natijalarimiz shunday bo'lishi kerak,ya'ni erkin gapirish, haqqoniy ma'lumot yetkazish,davlatning to'rtinchi hokimiyati bo'lish. Jurnalistlarga va jurnaliatikaga qiziquvchi yosh jurnalistlarga shuni aytamanki, bizni oldinda yanada katta-katta yutuqlar kutib turibdi. Maqsadlarni ko'p qo'yib, to'rtinchi hokimiyat bo'lishga intilmog'imiz darkor. Bilsangiz,demokratiya ancha rivojlangan davlatlarda matbuot va ommaviy axborot vositalariga nisbatan birinchi hokimiyat sifatida qaraladi. Bu jurnalistikaning kuchida ko'rinadi, seziladi. Shuning uchun kuchli mamlakatlarda kuchli jurnalistika barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib o'zini ko'rsatgan. O'zbek jurnalistikasi ham ana shunday maydonga chiqshi kerak, sababi uning tarixi,buguni va kelajagi bor...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,2007y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19,04.2018, 03/18/476/1087-son
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va OAV xodimlariga // "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 27-iyun.
4. Abduazizova N.Milliy jurnalistika tarixi.I-jild.Sharq.Toshkent 2008.
- 5.Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz?-Toshkent:Yangi asr avlodi,2001.
- 6.Jurnalistika uchun qisqacha yuridik to'plam.Internyus-O'zbekiston,"Fan".2000
- 7.Pendell Devid.Universal Jurnalist.Olma-ota.1995.
- 8.To'rtinchi hokimiyat.Toshkent.,1998.
- 9.Xudoyqulov.M.Matbuot va jamiyat.Toshkent.1973.